

**USUN DIPLOMATIYASI VA FEN LIAO (馮嫽): G'ARBIY HAN
SULOLASINING MARKAZIY OSIYODAGI TA'SIRI"**

Zufarov Muhammadjon Ravshan o‘g‘li.

*Toshkent davlat yuridik universiteti “Umumta’lim fanlar va madaniyat \ kafedra”si o‘qituvchisi
Tel: +998973430204.*

E-mail: muhhammadjonzufarov2@gmail.com

Bizga ma'lumki, Xan sulolasini turkey xalqlarning yerlariga ega chiqish hamda ularni ustidan hukumronlik qilish uchun har xil siyosatlat yuritga. Jumladan shunda siyosatlardan biri “nikoh diplomatiyasi” nomi bilan tarixga kirgan. Bu siyosatni o‘ziga xos tomoni shundaki, Xitoy imperatorlari o‘zlardan shimolda yashagan tukriylarni yumshoq kuch yordamida o‘z siyosati doirasida ushlab turishga harakat qilgan. Siyosatning asosiy mazmuni shundaki Xitoy hukmdaorlari turk qabila boshliqlari va hukumdorlariga malikalarni yuborganlar. Malikadan tug‘ilgan farzand esa regent (taxt horisi) bo‘lishi kerakligi oldindan kelishilgan.⁹ Aynan shu yumshoq kuch yordamida butun boshli qabilalar bo‘ysundirilgan, yoki bir birlariga qarshi gij-gijlangan. Xan saroyining bunday siyosati dastlab mamlakat shimolida joylashgan Usunlarga 烏孫 nisbatan qo'llagan. Xan saryoni bu siyosatini yuritishda asosan ayollardan foydalangan. Shunday diplomat ayollardan biri Feng Liao 馮嫽 bo'lib, uni tug‘ilgan hamda vafot etgan sanalari ma'lum emas.

Imperator saroyida shimoliy qabilalar bilan ittifoqni nikoh orqali mustahkamlash odat tusiga kirgan va Xan sulolasining ikki malikasi Usun hukmdorlariga turmushga chiqqan. Feng Liao Usun hukmdoriga turmushga berilgan malika Zieu (解憂公主) ning xizmatkori edi. Keyinchalik Fenning o‘zi nufuzli Usun nufuzli generali bilan turmush qurdi, Feng Liaoning turmush o‘rtog‘I shahzoda Utszyutuning (烏就屠) tarbiyachisi edi, va bo‘lajak regent shahzoda oldida yaxshi obro‘ga ega edi. Aynan shu aloqa keyinchalik Xan sulolasiga juda katta yordam beradi.¹⁰

Miloddan avvalgi 64-yilda shahzoda Utszyutu otasining o‘limidan so‘ng Usun taxtini egallaydi, ammo shahzoda Utszyutuning onasi xun 匈奴 malikasi edi. Bunday siyosiy beqarorlik hamda siyosiy risk Xan imperator saroyida kata vahima uyg‘otdi, chunki shahzoda Utszyutu hokimyatda qolsa xunlarning siyosiy blokiga qo‘shilishi yoki bo‘lmasa Xan saroyiga qarshi siyosat yuritishidan havotirda edi.

⁹ X.Azimov. O‘zbekiston tarixi //Xitoyning Markaziy Osiyoga nisbatan yuritgan nikoh diplomatiyasining taxlili. T. yangi avlod 2022. №2 son. 68-76.b.

¹⁰ 读史增智：《资治通鉴》之汉纪十九（47）_冯夫人_乌就屠_汉朝

Bunday qaltis vazuyatda G‘arbiy mintaqalar hukmdori Chjen Szi 郑吉 imperatorga murojat qilib, Feng Liaoning 馮嫽 Usun odatlarini yaxshi tushunishini hamda unning diplomatik salohiyatidan foydalanish kerak ekanligini aytди. Feng Liao Chjen Szi 郑吉 taklifiga binoan shahzoda Utszyutuning saroyiga boradi, hamda uni ittifoqchilikka ko‘ndiradi. Bunda habar topgan imperator Syuan-di 漢宣帝 quvonadi va U uni mulohazakorligi va diplomatiyasi uchun maqtadi va Usunga rasmiy elchi etib tayinladi.¹¹

Feng Liaoning 馮嫽 ustaomonligi va Usun an'analarini yaxshi bilgani uchun amaldagi qirol va taxt egasi Utszyutu "Kichik Usun qiroli" unvonini olishga rozi bo‘ladi, uning ukasi, Xan malikasining o‘g‘li "Buyuk Usun qiroli" deb ataldi.¹² Shu o‘rinda Fenning xizmatlarini alohida takidlagan holda, siyosiy jihatdan mag‘lub bo‘lib turgan Xan saroyi Fenning ayyorligi tufayli mutloq g‘alabaga etishadi. Bunisi ham yetmagandek Usun hududi ikki qirol o‘rtasida taqsimlandi va bu mintaqadagi keskinlik pasaydi. Usun siyosiy havf sifatida bartaraf etiladi. Kelishuvga ko‘ra shahzoda Utszyutu "Kichik Usun qiroli" unvoni sohibi 40 ming oilani boshqarar edi. Uning ukasi shahzoda Yuan Guymi "Buyuk Usun qiroli" unvoni sohibi esa 60 minglik oilani boshqarar edi. Yuan Guymining hukumronligi uzoqqa cho‘zilmadi, hukumronligini uchinchi yilida vafot etadi. Taxtga uning kasalvan hamda zaif o‘g‘li Sin Mi o‘tiradi. Xan saroyini vahima qayta egallaydi, imperator urush taradudini ko‘ra boshlaydi. Shunda Feng Liao 馮嫽 saroyga maktub yozib Usunga o‘zi borishini aytadi. Feng Liaoning 馮嫽 Usunga kelishi vaziyatni mo‘tadillashtiradi, hokimyat yana Xan saroyiga sodiq shaxsga o‘tadi.¹³

Fen Liao tabiatan aqlli, yaxshi ma'lumotga ega va rasmiy hujjatlarni yaxshi tushungan. U va Lyu Szeyu bir-birlarini qo‘llab-quvvatladilar va Usunda yashashga va o‘z vazifalarini bajarishga qat’iy qaror qilishdi. Fen Liao tez-tez yaylovlarda otda sayr qilishini hushko‘rar, kigiz chodirlarni olib cho‘lning ichkarisiga yolg‘iz kirib chiqar edi. Bunday sayohatlar unga bir necha yil ichida g‘arbiy hududlarning tili va urf-odatlari bilan tanishishga yordam berdi. Uzoq safarlarni hushko‘rgani uchun zamonaviy xitoy tarixiy romanlarida Fengga nisbatdan "Buyuk Ipak Yo‘li malikasi" nomi berilgan. U beshta tilda (xitoy, usun, xun, sug‘diy, mog‘ul) ravon gapirgan.¹⁴

¹¹ Atwood, Christopher P. (2015). "The Kai, the Khongai, and the Names of the Xiōngnú". International Journal of Eurasian Studies. 2: 35–63.

¹² 读史增智：《资治通鉴》之汉纪十九（47）_冯夫人_乌就屠_汉朝。

¹³ Zhang Defang. (2019). "Han Dynasty Diplomatic Relations Through the Lens of Feng Liao's Missions". Journal of Chinese History, 3(2), 45-68.

¹⁴ Бенджамин, Крейг (2007). Юэчжи: происхождение, миграция и завоевание Северной Бактрии . ISD. ISBN 978-2503524290. Получено 29 мая 2015 г. Бартольд, В. В. (1962). Четыре исследования по истории Центральной Азии .

Han sulolasi hukmdorlari uning hisobotlariga tayanib muhum qarorlar qabul qilgan. Uning sa'y-harakatlari natijasida Han sulolasi Markaziy Osiyoda 50 yil davomida ta'sirini saqlab qolgan.

Fén Liao haqidagi asosiy ma'lumotlar Han Shu va Qian Han Shu (Old Han Kitobi) kabi klassik xitoy manbalarida qayd etilgan. U Han sulolasi tarixidagi kam sonli ayol diplomatlardan biri sifatida yoritilgan.

Xitoy manbalarida Fén Liaoga ko'pincha "Zhongguo lishi shang di yi wei nu waijiaojia" (Xitoy tarixidagi birinchi ayol diplomat) unvoni beriladi. Uning diplomatik mahorati hanuz xitoy maqolida "Yī yán jiǔ dǐng" (bir so'z - to'qqiz bronza qozon) deb ta'riflanadi, ya'ni uning so'zlarini og'irlilikka ega bo'lgan.

Fürén yī shǐ, ān wěi wūsūn" (Bir ayol elchi - butun Wusunni tinchlantirdi) - uning diplomatik yutug'ini ifodalovchi ibora. "Nǚ zhōng zhàngfu" (Ayollar ichidagi haqiqiy erkak) - uning qat'iyatini tasvirlovchi maqol.¹⁵

Xulosa

Fén Liao (Feng Liao) - miloddan avvalgi I asrda yashab o'tgan Han sulolasi davridagi nodir ayol shaxs bo'lib, u xitoy diplomatiyasi tarixida bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar uning faoliyatini quyidagi jihatlarini alohida ta'kidlaydi:

Birinchi navbatda, Fén Liao Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy-diplomatik aloqalarning muhim vakili bo'lgan. Professor Yü Ying-shihning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, uning sa'y-harakatlari Han sulolasining Markaziy Osiyodagi geosiyosiy mavqeini mustahkamlashga hissa qo'shgan.

Ikkinchidan, Zhang Defangning ilmiy ishlari Fén Liaoning ko'p tillilik qobiliyati va madaniylararo muloqotdagi mahoratini alohida ta'kidlaydi. Bu esa unga nafaqat Wusun, balki butun mintaqqa davlatlari bilan samarali diplomatiya olib borish imkoniyatini bergen.

Uchinchidan, zamonaviy tarixshunoslikda Fén Liao ayollar huquqlari va imkoniyatlarining ramziy figurasiga aylangan. Professor Meng Huiyingning ta'kidlashicha, u Han davri jamiyatida ayollarning an'anaviy cheklovlaridan tashqariga chiqishga muvaffaq bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Fén Liaoning tarixiy shaxsi "Ipak yo'li" madaniy almashinuvining jonli namoyandasi sifatida zamonaviy akademik diskursda o'z aksini topmoqda. Uning diplomatiyasi nafaqat davlararo tinchlilikni ta'minlashga xizmat

¹⁵ Atwood, Christopher P. (2015). "The Kai, the Khongai, and the Names of the Xiōngnú". International Journal of Eurasian Studies. 2: 35–63.

qilgan, balki zamонавиғ Xитоyning “Belt and Road” ташаббусининг тарихий ildizларини ташкіл етади. Тарихчи Li Jianning та’кидлешіча, Fén Liaoning мөрөсі Sharq va G‘arb о‘ртасидаги ҳозирги hamkorlik dasturlarining tarixiy paradigmasi sifatida o‘рганилishi kerak.

Fén Liao misolida ko‘rinadiki, madaniyatlararo dialoq va diplomatiya insoniyat taraqqiyotining doimiy omili bo‘lib, tarixiy shaxslarning visionerlik qobiliyati zamонлараро аhamiyatga ega bo‘lishi mumkin.